

## MEZOLIT DAVRI ARXELOGIYASI.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Fayziyev Abdulazizbek Ravshan o'g'li**

*[fabdulazizbek@gmail.com](mailto:fabdulazizbek@gmail.com)*

*Tel: +998919074240*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.*

**Zaripova Ziyada O'razaliyevna**

*[ziyodazaripova90@gmail.com](mailto:ziyodazaripova90@gmail.com)*

*Tel: +998970962919*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoritilayotgan mavzuning mohiyati shundan iboratki, mezolit davri arxeologiyasining mezolit davri yodgorliklari orqali o'rganilishi manbalar asosida yoritilgan. Mezolit davri yodgorliklaridan uchtasida - Qayla, Tutqaul, Machay makonlarida mozorlar topilishi. Mezolit davrining o'ziga xos iqlim o'zgarishlari haqida. Mezolit davridagi mikrolit, paykon tosh qurollarining topilishi. Jahon arxeologiyasida mezolit davri Azil va Tardenuazga bosqichlari haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mezolit, Machay, Tutkaul, Qayla, Balxanbo'yi, Qorabo'g'iz, Qora O'zboy, Askola, Parvon, karenil.

**Key words:** Mesolithic, Machai, Tutkaul, Kayla, Balkhanboyi, Karabogiz, Kara Uzboy, Askola, Parvan, Karenil.

**Ключевые слова:** мезолит, Мачай, Туткаул, Кайла, Балханбойи, Карабогиз, Кара Узбой, Аскола, Парван, Карелил.

**Abstract:** The essence of the topic covered in this article is that the study of the archeology of the Mesolithic period through the monuments of the Mesolithic period is covered based on the sources. The discovery of graves in three of the monuments of the Mesolithic period - Kayla, Tutkaul, Machay. About the specific climatic changes of the Mesolithic period. The discovery of microlithic, paikon stone weapons in the Mesolithic period. In world archeology, it is explained that the Mesolithic period, Azil and Tardenoise, have been highlighted.

**Аннотация:** Суть темы, освещаемой в данной статье, заключается в том, что на основе источников освещается изучение археологии периода мезолита через памятники периода мезолита. Обнаружение могил трех памятников периода мезолита - Кайлы, Туткаула, Мачая. О специфических климатических изменениях периода мезолита. Находка микролитического, каменного оружия пайкона в период мезолита. В мировой археологии выделены этапы мезолита - азильский и тарденуазский.

**Kirish:** Mezolit davriga kelib tabiiy-geografik muhit keskin o'zgaradi. So'nggi paleolit va mezolit davrining ilk bosqichlarida hukmron bo'lgan oxirgi Vyurm muzligi erib, yer yuzida global isish boshlanadi va pleystotsen, golotsen bilan almashadi. Ko'pchilik olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra, bu tabiiy jarayon mil. av. 8300 yillarda sodir bo'lgan. **【1】** Natijada yer yuzining shimoliy hududlarida hayvonot va o'simlik dunyosi keskin o'zgaradi. Muzlik oldi hududlarida yashovchi hayvolarning ayrimlari, xususan, jundor karkidon, mamont, ho'kizqo'y so'nggi paleolit davrining oxirlaridayoq va keyinchalik esa boshqalari qirilib ketadi, qolgan qismi esa shimolga ko'chadi. Hayvonot olamidagi o'zgarishlar, ya'ni yirik hayvonlarning o'miga tez chopar, ziyrak va yolg'iz yashovchi hayvonlar turining ko'payishi paleolit davri ovchilik an'alarining qiyinlashtirdi. Natijada bu turdagi hayvonlarga ov qilish uchun yangi vosita o'q-yoydan foydalanish va yakka ovchilik mavqeyining oshishiga olib keldi. Mazkur hududlarda va janubiy mintaqalarning tog'li hududlarida ot, ho'kiz, sayga, yowoyi eshak o'rmon hududlarida esa los, bug'u, cho'chqa, bo'ri, tulki va boshqalar yashashgan. Yer yuzining janubiy mintaqalarida mazkur davr tabiiy-geografik jihatdan keskin o'zgarishlar sezilmaydi. «Mezolit» so'zi yunoncha «mezos»-o'rta, «litos»-tosh so'zlaridan kelib chiqqan bolib, miloddan avvalgi 12 ming yillikdan 7 ming yillikgacha davom etgan. Bu davr jamoasida diniy tasavvurlar ma'lum bir shaklga kirdi. Bu haqda mezolit davri mozorlari, qoyatosh rasmlari darak beradi. Mezolit davri yodgorliklaridan 3 tasida - Qayla, Tutkaul, Machay makonlarida mozorlar topilgan. Ular mezolit davrining so'ngi bosqichiga taaluqli. Qayla g'orida 2 mozor o'rganilgan. Skeletlar topilgan, yonlarida dengiz chig'anoqlaridan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Bosh suyagi ustiga ham mayda tosh munchoqlar tizib chiqilgan. Boshqa mozorlarda ham shu holat kuzatilgan. Bularni barchasi narigi dunyoga ishonishni bildiradi. **【2】**

**Muhokama va natijalar:** Mezolit industriyasini o'rganish orqali olimlar ulardagi rivojlanish jihatlarini aniqladilar. Shu asosda ularni ilk, o'rta va so'nggi bosqichga boldilar.

Ilk mezolit bosqichi yodgorliklarida mikrolit texnikasi endigina paydo bolgan. Bunday yodgorliklarda geometrik shakldagi (segment, trapetsiya, uchburchaksimon) tosh buyumlar va mikroparaqalar ham kam uchraydi. Bu davr yodgorliklarida so'nggi paleolitga doir qirg'ichchalar, o'zaklar, paraqalar ko'p tarqalgan[2].

O'rta mezolit bosqichida geometrik shakldagi mikrolit qurollarning yirik va qalinroq turli tiplari paydo bo'ladi. Qirg'ichlarning har xil shakldagilari vujudga keladi. Bunday qurollar ko'pincha tosh siniqlarining qirra tomonlariga va paraqalarning uchqir tomonlariga tig' chiqarish usuli bilan yasalgan, ularning hajmlari ancha kichiklashtirilib, takomillashtirilgan. O'zaklardan pichoqsimon uchirma ajratib, olish texnikasi vujudga keladi. O'rta mezolit davri yodgorliklarining yana bir xususiyati

qayroqtoshlardan yasalgan qurol va qirg'ichlarning borligidir. Sharqiy Kaspiybo'yi (mil. avv. X-VIII m. y)ning mezolit davri yodgorliklari Krasnavodsk yarim oroli, Balxanbo'yi, Qorabo'g'iz va Quyi O'zboy hududlarida tarqalgan. Bu yerda aniqlangan o'ttizdan ortiq manzilgohlar va to'rtta g'or-makonlar (Jebel, Qayli va Damdamchashma I, II) larda arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ularning quyi qatlamida hayot mezolit davrida boshlanib, neolit davrida davom etgan, ayrimlari bronza davrida ham kishilar yashashgan. Mazkur hududdagi yodgorliklarning mezolit davriga oid tosh qurollari tahlili va qiyosiy tavsifiga ko'ra Balxanbo'yi (ilk, o'rta va so'nggi bosqichlari) va Sharqiy Kaspiybo'yi (ilk va so'nggi bosqichlari)lardan iborat ikki kompleks yoki guruhga ajratish mumkin[2]. Ularning har ikkalasi uchun toshlarni tekis yorish va ulardan silliqlab mehnat qurollari yasash usuli xos. Sharqiy Kaspiybo'yi guruhidagi yodgorliklarda mikrolitlar ko'pchilikni tashkil etadi[1]. Fanda 100 dan ortiq manzilgohlar ma'lum bo'lib, ulardan asosan toshdan ishlangan qirindilar namunalari topilgan. Finlandiyada komsa madaniyati bilan bir vaqtda askola madaniyati mavjud bo'lgan (unga tegishli manzilgohlar Askola viloyati, Porvan – Yoki yaqinidan topib o'rganilgan) ov qurollari asosan kvarsitdan ishlangan. Ushbu ikkala madaniyat ham miloddan avvalgi VIII ming yilliklar bilan belgilanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu madaniyat yodgorliklariga o'xshash. Extimolki, ularning paydo bo'lishi ajdodlarimizning shimol bug'isi izidan shimol tomonga ko'chishi natijasida paydo bo'ladi. Fosna madaniyati Norvegiyaning g'arbiy qirg'oq bo'yi hududida tarqalgan. Ushbu madaniyatning fosna nomi bilan atalishi shahri nomi bilan bog'liq. Finlandiyaning so'ngi mezolit davri madaniyatlar arxeologiya fanida suomusyarvi nomi bilan ma'lumdir. Ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Finlandiyaning janubiy qismida topib o'rganilgan. Ushbu madaniyat kareli hududida ham keng tarqalgan. Bu madaniyatning so'ngi bosqichi neolit davriga xos bo'lsada, aholisi sopol buyumlar bilan tanish bo'lishmagan. Bu madaniyatning kelib chiqishi borasida ham bir nechta nuqtai nazarlar mavjud. Birinchi nuqtai nazarga ko'ra Finlandiya ko'rfazining janubiy qirg'oqlari hududlaridan uo'chib aholi bilan bog'lansa, ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra esa askola madaniyatining so'ngi bosqichi bilan belgilanadi. Yevropaning eng qadimgi madaniyatlaridan biri bu maglemoze madaniyatidir[2]. Maglemoze deb nomlanishi esa Zelandiyadagi Muleruxa shahri nomi bilan bog'liq. Bu yerda 1900 yilda o'tkazilgan qazishmalar jarayonida qadimgi qishloq izlari topib o'rganilgan. Ushbu madaniyat Angliyadan Boltiqbo'yigacha, janubiy Norvegiyadan Pikardiyagacha bshlgan hududlarda keng tarqalgan. Ushbu madaniyatlarining eng asosiy yodgorliklari Zerlandiya oroli joylashgan xolmgard va Sverdborg; Angliyadagi – Broksbern; Killing – xit; Nyubyuri; Germaniyadagi – Kalbe; Dyubbartin; Dyukenzee; Shvesariyadagi – Istabi; Omossen; Sandarna yodgorliklarini hisoblanadi. Skandinaviya hududida maslemize madaniyati o'rniga Konimoze madaniyati keladi.

Azil yodgorligi Ispaniyaning shimoli va Fransiyaning janubidagi Solyutredavri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyatga oid yodgorliklar Fransiya Pireniyasi hududlaridan topilgan. Azil madaniyatini Yevropaning boshqa ilk mezolit davri yodgorliklari Tyongersk vap Svidersk madaniyatlari bilan bir vaqtda mavjud bo'lgan.

**[3]** O'zbekiston hududida mezolit davriga oid eng qadimgi yodgorlik Qo'shilish bo'lib, u miloddan avvalgi 10 ming yillik bilan davrlanadi. Undan mikrolit qurollar, paykon va uchburchak shakldagi qurollar topilgan, hayvonlarning qo'lga o'rgatilgan turlari (buqa yoki sigir) suyagi topilgan. Bu esa Mezolit davri boshida O'zbekiston hududida odamlar chorvachilikdan xabardor bo'lganliklaridan dalolat beradi. Respublikamizda Mezolitga oid ko'plab yodgorliklardan Farg'ona vodiysining So'x tumanidagi Obishir I va Obishir V manzilgohlari (qarang Obishir madaniyati), Surxondaryoning Boysun tumanidagi Machay g'ori kabilarni ko'rsatish mumkin. Mezolit davrida iqlimning o'zgarishi bilan hayvonot dunyosi ham o'zgaradi. Paleolit davridagi yirik hayvonlar yo'qolib, ular o'rniga tez chopar va mayda hayvonlar: arxar, muflon, tog' echkisi, bug'u, jayron, qulon, quyon, arslon, yo'lbars, bars, qoplon va boshqa hayvonlar paydo bo'ldi. Ularni ilgaridagidek ovlash ibtidoiy odam uchun murakkablik tug'dirdi. Natijada o'q-yoy ixtiro qilindi. Bu mezolit davrining eng katta yutug'i edi. O'q yoyning kashf etilishi xo'jalikda ovning ahamiyatini oshirdi. Endi ibtidoiy ovchilar uzoqdan turib o'z o'ljasini nishonga olish imkoniyatiga ega bo'ldilar va oziq-ovqatga bo'lgan talabni qondira oldilar. O'simliklar dunyosida ham issiq talab o'simliklar salmog'i oshdi. Daryolarning sersuv bo'lishi baliqchilikning vujudga kelishiga va dastlabki qayiqlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ibtidoiy odamning turmush tarzini o'zgartirdi. Ibtidoiy ovchilar hayvonlar (asosan bug'ular) izidan yurib, yangi-yangi yerlarni o'zlashtirib bordilar. Shu sababli, mezolit davri odamlari keng hududlarga tarqalganlar. Mezolit davrida O'rta Osiyoning deyarli barcha hududlari yashash uchun qulay bo'lgan.[4] Amudaryo bilan Sirdaryo oraliqlarida mezolit davriga oid yodgorliklar ko'p uchraydi. Bu davr jamoasida diniy tasavvurlar ma'lum bir shaklga kirdi. Bu haqda mezolit davri mozorlari, qoyatosh rasmlari darak beradi. Mezolit davri yodgorliklaridan 3 tasida - Qayla, Tutqaul, Machay makonlarida mozorlar topilgan. Ular mezolit davrining so'ngi bosqichiga taalluqli. Qayla g'orida 2 ta mozor o'rganilgan. Skeletlar chalqanchasiga yotqizilib. oyoqlari biroz bukilgan, ustiga oxra sepilgan. Yonlarida dengiz chig'anoqlaridan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Bosh suyagi ustiga ham mayda tosh munchoqlar tizib chiqilgan. Boshqa mozorlarda ham shu holat kuzatilgan. Bularning barchasi narigi dunyoga ishonishni bildiradi, Jahon arxeologiyasida mezolit davri 2 bosqichga: Azil va Tardenuazga bo'linadi. Ular Fransiya dan topilgan makonlar nomlari bilan atalgan. Azil davri tosh qurollarining asosiy xususiyatlaridan biri - mikrolit qurollarning yasalişidir (yunoncha mikros-kichik). Ular asosan o'q uchi vazifasini bajargan. Ularning ko'pchiligi tol bargiga o'xshash bo'lgan.[4]

**Xulosa:** xulosa, qilib aytganda mezolit davriga kelib odamlar ijtimoiy hayotida yana bir pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa, Yevropa hamda O'rta Osiyo hududlaridan topilgan mezolit davri yodgorliklari buning yaqqol misolidir. Aynan ular orqali o'rta tosh davridagi , odamlarning yashash tarzi, madaniyati, hattoki geografik o'rniga ko'ra iqlimini ham bilish mumkin. Ushbu hududlarda arxeolog olimlar tadqiqotlar o'tkazib mezolit davri bo'yicha bir qancha ma'lumotlarni qoldirganlar va bu ma'lumotlar bizga manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Annayev.J “Jahon arxeologiyasi” 91-bet
2. N.A.Egamberdiyev “Arxeologiya” 38-bet
3. Z.M.Qodirov. Toshkent, 2021-yil
4. O'zME.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil